O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 26-07-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

212734 - SONLI

Obyekt nomi: Ўз ер участкасида автобус парки, маъмурий бино, таъмирлаш цехи, транспорт воситаларини ювиш, электр қувватлаш биноси (иншоати) АЁҚШ, АГТКС, омборхона ва ёрдамчи бинолар қуриш	
Buyurtmachi:	GOLDEN HOUSE DEVELOPMENT MCHJ
Bosh loyihachi:	"URBAN PRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	018640

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda berilgan 1726290-148715-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yil 30-dekabrda berilgan 1726-1726290-101522-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2021-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.4. «LOYIHA-TADQIQOT» MChJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.5. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2023-yil 19-iyunda berilgan 05-0660-sonli, 2023-yil 11-oktyabrdagi 05-1487-sonli texnik sharti.

1.6. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ tomonidan 2023-yil 01-avgustda berilgan 270/4-2340-sonli texnik sharti.

1.7. “STEEL PROPERTY CONSTRUCTION” MChJ tomonidan 2023-yil 28-sentyabrda berilgan SPC-48-sonli texnik sharti.

1.8. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 2023-yil 20-noyabrda berilgan 044262-sonli texnik sharti.

1.9. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2021-yil 22-noyabrda tuzilgan 0059-sonli shartnomaga 2023-yil 12-aprelda tuzilgan 1-sonli qo‘shimcha kelishuv.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta’minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog‘i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- aloqa tizimi (SS);
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq – qum-tosh aralashmasi.

Tuproqning seysmik toifasi – II (ikkinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan 4.8-6.1 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob’ekt Toshkent shahri, Yashnobod tumani, “Amir Temur” MFY, Oxangaron shox ko‘chasi manzilida joylashgan bo‘lib, quyidagi bino va inshootlar qurilishi ko‘zda tutilgan:

- avtotransport kirish-nazorat punkti;
- ma’muriy bino;
- ta’mirlash ustaxonasi;
- avtomobil yuvish binosi;
- omborxona;
- tashqaridagi hojatxona;
- transformator nim stansiyasi;
- nasos binosi;
- suv rezervuari;
- hudud to‘siq devorlari va h.k.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Umumiy maydoni - 5.22 ga

Qurilish maydoni - 1.14 ga

Qoplamalar maydoni - 4.08 ga

3.3. Arxitektura – qurilish yechimlari.

Avtotransport kirish-nazorat punkti – bir qavatli, burchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 12.0x24.0m. Balandligi 2.9m.

Trasportlar o‘tishi uchun soyabon ko‘zda tutilgan. Soyabon balandligi 5.75m.

Soyabon ostida o‘lchamlari 800x10500mm bo‘lgan 2 ta tekshiruv handak ko‘zda tutilgan.

Konstruktiv sxema – monolit temirbeton karkas.

Poydevori – lentasimon va alohida turuvchi monolit temirbeton.

Karkas - monolit temirbeton.

Tashqi devorlar – 250mm qalinlikdagi g‘ishtdan iborat.

Ichki devorlar – 150mm qalinlikdagi gazoblokdan iborat.

Tom qismi – metall konstruksiyalar bo‘ylab profnastil.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Poypesh – keramogranit plita bilan qoplangan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Shift – gipsokarton, dekorativ reyka.

Eshiklar – MDF.

Darvoza - metall.

Oyna va vitraj – PVX yoki alyumin profil.

Pol – keramogranit, linoleum.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 302.55 m²

Umumiy maydoni - 50.39 m²

Qurilish hajmi - 231.46 m^3.

Ma’muriy bino – ikki qavatli, to‘rtburchak shaklidagi bino bo‘lib, o‘lchamlari 60.0x15.5m. Qavatlar balandligi 3.6m.

Konstruktiv sxema – monolit temirbeton karkas.

Poydevori – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustun va to‘sinlar - monolit temirbeton.

Tashqi devorlar – 200mm qalinlikdagi gazoblok.

Ichki devorlar - 150mm qalinlikdagi gazoblok, 100mm qalinlikdagi gipsokarton.

Orayopmalar – 220mm qalinlikdagi g‘ovakli yig‘ma temirbeton plita.

Tom qismi – yog‘och konstruksiyalar bo‘ylab profnastil.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Poypesh – keramogranit plita bilan qoplangan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, keramik plita.

Shift – gipsokarton, “Armstrong”, plastik reyka.

Eshiklar – alyumin profil, MDF, metall.

Oyna va vitraj – alyumin profil, metall panjara.

Pol – keramogranit, laminat, linoleum, keramik plita.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 1038.0 m²

Umumiy maydoni - 1781.76 m²

Qurilish hajmi - 8899.23 m^3.

Ta’mirlash ustaxonasi – bir qavatli, to‘rtburchak shklidagi bino bo‘lib, o‘lchamlari 91.0x60.6m. Qavat balandligi 7.2m (poldan ferma ostigacha). Bundan tashqari 6.45x60.6m, 9.4x60.6m o‘lchamda qo‘shimcha qurilish ham mavjud. Balandligi 4.5m. Ular seysmik choklar bilan ajratilgan.

Konstruktiv sxema – “Kislovodsk”.

Poydevori – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustunlar - monolit temirbeton.

Tashqi devorlar – 100mm qalinlikdagi “Sendvich” panellari, 250mm qalinlikdagi gazoblok.

Ichki devorlar - 150mm qalinlikdagi gazoblok, 100mm qalinlikdagi gipsokarton.

Orayopmalar – “Kislovodsk” sistemasi.

Tom qismi – 120mm qalinlikdagi “Sendvich” panellari.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Poypesh – keramogranit plita bilan qoplangan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, keramik plita.

Eshik – alyumin profil, metall.

Oyna va vitraj – alyumin profil.

Pol – linoleum, keramik plita, beton.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 6664.26 m²

Umumiy maydoni - 6512.25 m²

Qurilish hajmi - 67229.87 m^3.

Avtomobil yuvish binosi – bir qavatli, to‘rtburchak shaklidagi bino bo‘lib, asosiy bino o‘lchamlari 18.0x42.0m, qo‘shimcha bino o‘lchamlari 5.4x43.1m. Balandligi 3.2m va 6.0m. Bino seysmik chok bilan ajratilgan.

Konstruktiv sxema – yig‘ma temirbeton karkas.

Poydevori – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustunlar - monolit temirbeton.

Tashqi devorlar – 250mm qalinlikdagi gazoblok.

Ichki devorlar - 150mm qalinlikdagi gazoblok.

Orayopmalar – yig‘ma temirbeton ferma (BDR).

Tom qismi – metall progonlar bo‘ylab 120mm qalinlikdagi “Sendvich” panellari.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – dekorativ suvoq.

Poypesh – dekorativ suvoq.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, keramik plita.

Eshik – metall.

Darvoza – metall.

Shift – gipsokarton.

Oyna va vitraj – alyumin profil.

Pol – keramik plita, beton.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 1081.0 m²

Umumiy maydoni - 1022.9 m²

Qurilish hajmi - 7156.8 m^3.

Omborxona – bir qavatli, burchak shaklidagi bino bo‘lib, o‘lchamlari 15.5x32.0m va 15.1x18.0m. Balandligi 4.85m.

Konstruktiv sxema – yig‘ma temirbeton karkas.

Poydevori – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustunlar va to‘sinlar - monolit temirbeton.

Tashqi devorlar – 200mm qalinlikdagi gazoblok.

Ichki devorlar - 200mm qalinlikdagi gazoblok.

Tom qismi – metall progonlar bo‘ylab 120mm qalinlikdagi “Sendvich” panellari.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – dekorativ suvoq.

Poypesh – keramogranit plita.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Darvoza – metall.

Shift – shpaklevka.

Pol – beton.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 810.97 m^2

Umumiy maydoni - 769.83 m^2

Qurilish hajmi - 5595.69 m^3.

Transformator nim stansiyasi – bir qavatli, to‘rtburchak shaklidagi bino bo‘lib, o‘lchamlari 8.2x11.05m. Balandligi 3.75m.

Poydevori – lentasimon monolit temirbeton.

Devorlar – 380mm qalinlikdagi g‘ishtdan iborat.

Ichki devorlar – 120mm qalinlikdagi g‘ishtdan iborat.

Orayopma - 220mm qalinlikdagi g‘ovakli yig‘ma temirbeton plita.

Kabel kanallari – monolit temirbeton.

Tom qismi – tekkis, yumshoq qoplama.

Nasos stansiyasi – yer osti inshooti bo‘lib, o‘lchamlari 10.0x6.0m. Chuqurligi 2.7m.

Konstruktiv sxema – monolit temirbeton.

Devorlar – 400mm qalinlikdagi monolit temirbeton.

Tom yopma - 220mm qalinlikdagi g‘ovakli yig‘ma temirbeton plita va h.k.

3.4. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F4.3, F5.2.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – S1, SO.

3.5. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Bundan tashqari, devorlarda 100mm, tom qoplama 120mm qalinlikdagi “Sendvich” panellaridan foydalanilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2024-yil 16-apreldagi 111702366-sonli xulosa).

- O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 23-maydagi 01-02/14-848-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. Buyurtmachi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-220-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish shart.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahri, Yashnobod tumani, “Amir Temur” MFY, Oxangaron shox ko‘chasi manzilida O‘z yer uchastkasida avtobus parki, ma’muriy bino, ta’mirlash sexi, transport vositalarini yuvish, elektr quvvatlash binosi (inshoati) AYoQSh, AGTKS, omborxona va yordamchi binolar qurish” ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To‘rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Adjigafarova Remziye Ablyayevna, Bekbayev Sanjar Qodirjon O‘g‘li, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna